

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**O‘RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil
"___" ___dagi ___-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:


S.U. Xodjaniyazov

Akademik faoliyat va registrator
departamenti boshlig'i


G'R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Xorijiy filologiya" fakulteti Kengashining 2025-yil
"___" ___dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya
etilgan. (___-sonli bayonnoma).

Xorijiy filologiya fakulteti dekani:


Z.O. Jumaniyazov

Mazkur o'quv dastur "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasining 2025-yil
"___" ___dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya
etilgan (___-sonli bayonnoma).

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası
mudiri:


R.X. Abidova

Fan/modul kodi O'TNA 15-718		O'quv yili 2025-2026 2026-2027	Semestr 5-6-7-8	ECTS - Kreditlar 5-semestr – 5 6-semestr – 4 7-semestr – 5 8-semestr – 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/ingliz		Haftadagi dars soatlari 5-semestr – 4 6-semestr – 4 7-semestr – 4 8-semestr – 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O'rganilayotgan til nazariy aspektlari	240 5-semestr – 60 6-semestr – 60 7-semestr – 60 8-semestr – 60	300 5-semestr – 90 6-semestr – 60 7-semestr – 90 8-semestr – 60	540 5-semestr – 150 6-semestr – 120 7-semestr – 150 8-semestr – 120	
I. Fanning mazmuni					
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tilning muhim aspektlari: leksikologiya, stilistika, til tarixi, fonetika va grammatikaning nazariy asoslarini o'rgatish, nazariy bilimlarni amaliyotda, muloqotda to'g'ri qo'llash malakalarini rivojlantirish va til aspektlari to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra o'rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallashlari uchun talabalarga o'rganilayotgan xorijiy tilning leksikologiya, stilistika, til tarixi, fonetika va grammatikasi asosida chuqur bilim berish orqali ularning erkin muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdir.</p> <p>O'rganilayotgan til nazariy aspektlari fani quyidagi 5 modulni o'z ichiga oladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Leksikologiya; 2. Stilistika; 3. Nazariy grammatika; 4. O'rganilayotgan til tarixi; 5. Nazariy fonetika. 					
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1. <u>LEKSIKOLOGIYA</u>					
1-mavzu. Leksikologiyaga kirish.					
Kirish. Leksikologiyaning predmeti, uning vazifalari va fan sifatida rivojlanishi. Ingliz leksikologiyasi va uning Tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasi. Leksikologiyaning Fonetika, Grammatika, Til tarixi bilan aloqasi. Tarixiy va Tavsifiy leksikologiya.					
2-mavzu. So'z tuzilishi.					
So'z – tilning lug'at tizimining asosiy birligi sifatida. Morfema va uning turlari.					

Morfemik tahlil asoslari. Derivatsion tahlil asoslari. Asos va uning turlari.

3-mavzu. Leksik tahlil.

4-mavzu. Soʻz yasalihi.

Affiksatsiya: Prefiksatsiya va suffiksatsiya. Affikslar semantikasi. Affikslar tasnifi. Konversiya. Uning asosiy turlari. Semantik derivatsiya kriteriyasi.

5-mavzu. Soʻz yasalihi.

Qoʻshma soʻzlar. Qoʻshma soʻzlar tasnifi.

6-mavzu. Soʻz yasalihi boshqa usullari.

Qisqartma soʻzlar. Abbrivaturalar tasnifi. Tovush va urgʻu oʻzgarishi hisobiga soʻzlarning yasalihi.

7-mavzu. Semasiologiya. Soʻz maʼnosi.

Maʼno taʼrifi. Maʼno turlari. Soʻzning semantik tuzilishi. Maʼno va kontekst.

8-mavzu. Semasiologiya. Maʼno oʻzgarishi.

Semantik oʻzgarish sabablari. Semantik oʻzgarish natijasi. Maʼno torayishi. Maʼno kengayishi.

9-mavzu. Ingliz tili lugʻat tarkibi – tizim sifatida.

Koʻp maʼnolilik. Koʻpmaʼnolilikning sinxron va diaxron tahlili. Omonimiya. Omonimlar tasnifi. Omonimlar manbasi. Omonimlar va koʻp manoli soʻzlar farqi. Sinonimiya va sinonimlar tasnifi. Sinonimlar manbasi. Antonimlar va ularning tasnifi.

10-mavzu. Ingliz tilida semantik tizimi.

Semantik maydon. Neologizmlar. Hissiy boʻyoqdor soʻzlar. Soʻzlarning stilistik farqlari.

11-mavzu. Frazologiya.

Frazologik birliklar taʼrifi. Frazologik birliklar yasalihi usullari. Frazologik birliklar tasnifi.

12-mavzu. Ingliz tili soʻz tarkibining etimologik tadqiqi.

Ingliz tilida soʻzlarning etimologiyasi. Oʻzlashgan soʻzlar tasnifi. Oʻzlashgan soʻzlar assimilyatsiyasi. Manba tiliga koʻra oʻzlashma soʻzlar tasnifi.

13-mavzu. Ingliz tili leksikografiyasi.

Lugʻatlar tuzilishi va ularning turlari. [Lugʻatlarning umumiy tipologiyasi. \(Общая типология словарей\)](#)

14-mavzu. Ingliz tili variantlari va shevalari.

Ingliz tilida gaplashadigan davlatlarda Ingliz tilining oʻziga xosliklari va umumiyliklari.

15-mavzu. Leksikologik ilmiy izlanishlarda tadqiqot metodlari.

Komponent tahlil metodlari. Soʻzning kognitiv tahlili. Semantik farq tahlili. Distributiv tahlil metodlari. Transformatsiya metodi. Tarkibiy qismlarga ajratish metodi. Statistik tahlil metodlari.

2. STILISTIKA

1-mavzu. Stil va stilistikaning umumiy tushunchalari.

Stilistika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Stilistik ifoda vositalari va uslublar. Tilning turli-tumanligi.

2-mavzu. Funktsional nutq uslublari.

Badiiy uslub. Sheʼriyat tili, drama tili. **Publitistik uslub.** Oratorlik, essay, jurnalistik maqolalar.

3-mavzu. Funktsional nutq uslublari.

Gazeta va axborot vositalari uslubi. Qisqa yangilik birliklari, reklama, e'lonlar, tahririyatga oid birliklar. **Ilmiy uslub; Rasmiy hujjatlar uslubi.**

4-mavzu. Stilistik tahlil.

5-mavzu. Leksika tarkibining stilistik tasnifi.

Umumiy qarashlar. Neytral, adabiy va og'zaki so'zlar. Maxsus adabiy va og'zaki nutqqa xos so'zlar. **Leksikaning stilistik manbalari.** (Стилистические ресурсы лексики)

6-mavzu. Stilistik ma'no.

So'z ma'nosining turlari.

7-mavzu. Fonostilistika yoki fonetik ifodalash vositalari va stilistik uslublari.

Umumiy qarashlar. Onomatopiya, alliteratsiya, qofiya, ritm.

8-mavzu. Leksik ifodalash vositalari va stilistik uslublari. Turli leksik ma'nolarning o'zaro tasiri.

Metafora, metonimiya, kinoya, epitet, oksimoron, antonomaziya.

9-mavzu. Leksik ifodalash vositalari va stilistik uslublari. Narsa-predmetning ma'lum xususiyatiga ko'ra ma'no kuchayishi.

O'xshatish, perifraza, evfemizm, mubolag'a.

10-mavzu. Leksik-sintaktik ifodalash vositalari. Turg'un iboralardan foydalanish.

Maqollar va matallar, idiomalar va turg'un birikmalardan foydalanish.

11-mavzu. Sintaktik ifoda vositalari va stilistik uslublari. Gapdan katta birliklar tuzilishi.

Supra-frazal birliklar, paragraf.

12-mavzu. Sintaktik ifoda vositalari va stilistik uslublari. Sintaktik qurilma kompozitsiyasi.

Stilistik inversiya, ajratilgan konstruktsiya, parallel konstruktsiya, takror, enumeratsiya, gradatsiya, antiteza.

13-mavzu. Sintaktik ifoda vositalari va stilistik uslublari. Fikr va ma'nolarning bog'lanish usullari.

Asindeton (bog'lovchilarsiz), polisindeton (ko'p bog'lovchilimli). Ellipsis, aposiopesis, hikoyadagi so'roq, taqdimot nutqi, tugallanmagan gaplar. Ritorik so'roq gaplar, litota.

14-mavzu. Matn interpretatsiyasi

15-mavzu. Matn tasnifi. Matn stilistik ishlov berish ob'ekti sifatida (Текст как объект стилистической обработки)

3.NAZARIY GRAMMATIKA

1-mavzu. Tilning genetik va morfologik tasnifi.

Tillarning genetik tipologiyasi. Tilning morfologik tasnifi.

2-mavzu. Nutq akti. Til va nutq.

Nutq sathlari va ularning birliklari.

3-mavzu. Ingliz tilining morfemik tuzilishi.

Morfema turlari. Til birliklarining o'zaro turlari.

4-mavzu. Ingliz tilining grammatik tuzilishi.

Grammatik kategoriyalar. Sintaktik tuzilish birliklari. Leksik va grammatik ma'no.

5-mavzu. Asosiy so‘z turkumlari.

Ot. Olmosh. Sifat. Ravish. Fe'l. .

6-mavzu. Yordamchi so‘z turkumlari.

Aniqllovchilar. Yordamchi fe'llar. Predloglar. Bog'lovchilar.

7-mavzu. Sintaksis.

Sintaktik aloqa turlari.

8-mavzu. Gap.

Gapning turlari. Sodda gap. Gap bo'laklari.

9-mavzu. Grammatik tahlilning umumiy asoslari.

So‘z tuzilishining tahlil metodlari. Gap tuzilishining tahlil metodlari.

10-mavzu. Qo‘shma va murakkab gaplar.

Qo‘shma va murakkab gaplar tuzilishi.

11-mavzu. Punktuatsiya.

Punktuation belgilarning gaplarda qo'llanilishi.

12-mavzu. Sintagmatik aloqalar.

Sintagmatik aloqa turlari.

13-mavzu. Lingvistik birliklarning pragmatik aspektlari.

Pragmatika. Gapning pragmatik tasnifi.

14-mavzu. Grammatikaning kognitiv va psixolingvistik aspektlari.

Psixologiya va lingvistikaning o'zaro aloqasi. Kognitiv lingvistika.

15-mavzu. Tilning sistematik tuzilishi.

Sistema (tizim) va tuzilish. Ierarxiya va sath.

4. O'RGANILAYOTGAN TIL TARIXI

5. NAZARIY FONETIKA

1-mavzu. Ingliz tili tarixi. German tillari.

German tillari haqida umumiy ma'lumot. German tillarining fonetik xususiyatlari.

2-mavzu. Qadimgi ingliz tili.

Qadimgi ingliz tili yozma manbalari va fonetikasi, grammatikasi, lug'at tarkibi.

3-mavzu. O'rta davr ingliz tilisi.

O'rta davr ingliz tilida fonetik o'zgarishlar. Grammatika. Lug'at tarkibi.

Asindeton (bog'lovchilarsiz), polisindeton (ko'p bo'glovchilarli).

4-mavzu. Ingliz milliy tilining shakllanishi.

Ingliz tili shakllanish tarixi.

5-mavzu. Yangi ingliz tilidagi o'zgarishlar.

Yangi ingliz tili davri. [Yangi ingliz tili davrida adabiyot va yozuv. \(Литература и письменность новоанглийского \)](#)

периода.

6-mavzu. Fonetika tilshunoslikning sohasi sifatida.

Fonetikaning aspektlari, turlari va metodlari. Transkripsiya.

7-mavzu. Fonologik nazariyalar.

Fonemalar, simbollar, fonologik maktablar.

8-mavzu. Ingliz talaffuzining asosiy turlari.

Talaffuzning adabiy va mahalliy turlari. Ingliz talaffuzining asosiy turlari.

9-mavzu. Ingliz tilida undosh fonemalar tizimi.

Ingliz tilida undoshlar tasnifi. Ingliz tilida unlilarning fonologik tahlili.

	<p>10-mavzu. Ingliz tilida unli fonemalar tizimi. Ingliz tilida unlilar tasnifi. Ingliz tilida undoshlarning fonologik tahlili.</p> <p>11-mavzu. Ingliz tilida bo‘g‘in tuzilishi. Bo‘g‘in tarifi va uning vazifalari, tasnifi. Bo‘g‘in yasaliş va bo‘linish nazariyalari.</p> <p>12-mavzu. Ingliz tilida so‘z urg‘usi. Urg‘uning turlari, uning o‘rni va darajasi, vazifalari.</p> <p>13-mavzu. Ingliz tilining intonatsiya tuzilishi. Intonatsiyaning vazifasi. Intonatsiyaning fonostilistik xususiyatlari. Intonatsiyaning paralingvistik xususiyatlari.</p> <p>14-mavzu. Bog‘langan nutq aspektlari. Ritm. Assimilyatsiya.</p> <p>15-mavzu. Fonemik tahlil muammolari. Fonemik tahlilda uchraydigan muammolar.</p>
	<p style="text-align: center;">III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar</p> <p>1. Leksikologiya (Lexicology)</p> <p>Ko‘rsatmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Leksik birliklarni o‘rganish: Talabalar so‘z va ularning ma‘nolari, turli leksik birlikmalarni va ularning ishlatilish kontekstlarini tahlil qilishlari kerak. ✓ Sinonimlar va antonimlar: Sinonimlar va antonimlar orqali tilning boyligini ko‘rsatish. Bu o‘rganish so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. ✓ Leksik semantika: So‘zlarning ma‘nolarining qanday o‘zgarishi, kontekstga qarab qanday yangi ma‘nolar olishini o‘rganish. <p>Tavsiyalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Mashqlar: Talabalarga turli xil matnlar va so‘zlar berib, ularni sinonimlar va antonimlar bilan almashtirishni so‘rish. ✓ Leksik va semantik xatolarni aniqlash: Talabalar matnlar orqali ma‘no xatolarini aniqlashga harakat qilishlari kerak. <p>2. Stilistika (Stylistics)</p> <p>Ko‘rsatmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Til uslubi va stilistik xususiyatlar: Har xil stilistik vositalar (metafora, aliteratsiya, paronomaziya va boshqalar) ni aniqlash va ularning maqsadli foydalanilishini tushunish. ✓ Matnlarning stilistik tahlili: Matnlar ustida ishlashda uning til uslubini, figurali ifodalarini tahlil qilish. <p>Tavsiyalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Maqsadli uslublarni ajratish: Talabalar turli janrlardagi matnlarni (ilmiy, adabiy, publitsistik) o‘qib, ulardagi uslubiy xususiyatlarni aniqlashlari kerak. ✓ Stilistika usullarini qo‘llash: Talabalar o‘zlarining matnlarida stilistik vositalarni qanday ishlatishlari mumkinligini o‘rganishlari kerak. <p>3. Nazariy grammatika (Theoretical Grammar)</p> <p>Ko‘rsatmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Grammatika elementlari: Talabalar sintaksis, morfologiya, fonetika va fonologiya kabi grammatika qismlarini o‘rganishlari kerak. ✓ Grammatika tizimi: Til tizimining barcha elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish, masalan, fe‘l va ot o‘rtasidagi munosabatlar.

	<p>✓ Sintaktik tahlil: Talabalar gapni morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilishni o'rganishlari kerak.</p> <p>Tavsiyalar:</p> <p>✓ Grammatikaga asoslangan mashqlar: Talabalar grammatik qoidalarni o'rganishda mashqlar qilishlari, masalan, gaplarni sintaktik tahlil qilish.</p> <p>✓ Yozma ishlar: Talabalar turli grammatik strukturalardan foydalanib, mustaqil gaplar va matnlar tuzishlari kerak.</p> <p>4. Til tarixi (History of Language)</p> <p>Ko'rsatmalar:</p> <p>✓ Tilning rivojlanishi: Talabalar tilning tarixi, rivojlanish bosqichlari va turli davrlar orasidagi o'zgarishlarni o'rganishlari kerak.</p> <p>✓ Leksik va fonetik o'zgarishlar: Til tarixidagi leksik va fonetik o'zgarishlarni aniqlash, misollar keltirish.</p> <p>Tavsiyalar:</p> <p>✓ Evolyutsion jarayonlarni o'rganish: Tilning tarixiy rivojlanishi haqidagi maqolalarni o'qib, talabalarga ushbu jarayonlarning asosiy tamoyillarini tushunishga yordam berish.</p> <p>✓ Tarixiy tahlil: Talabalar tilning eski shakllari bilan hozirgi o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishlari kerak.</p> <p>5. Nazariy fonetika (Theoretical Phonetics)</p> <p>Ko'rsatmalar:</p> <p>✓ Fonetika tizimi: Talabalar fonemalar, silabalar, stress, intonatsiya va boshqa fonetik elementlarni o'rganishlari kerak.</p> <p>✓ Fonetika va fonologiya: Fonetika va fonologiyaning farqlarini tushunish, tilning fonetik va fonologik tizimini o'rganish.</p> <p>Tavsiyalar:</p> <p>✓ Fonetika mashqlari: Talabalar turli fonetik tafovutlarni tahlil qilishlari kerak (masalan, harflar orasidagi farqlar, stress va intonatsiyaning o'rni).</p> <p>✓ Auditoriy mashqlar: Talabalar turli xil ovozlarni eshitish va ularni ajratish mashqlarini bajarishlari kerak.</p> <p>Seminar mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va amaliy masalalarni kompyuter bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.</p>
	<p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Hozirgi davr mutaxassisidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, belgilangan vazifalarni bajarish uchun ko'p ma'lumotlar orasidan kerakligini tanlab olish va bu ma'lumotlarni qayta ishlay olish talab qilinadi.</p> <p>Talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iboratdir:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ yangi bilim olish usullarini egallash, jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; ✓ auditoriyadagi mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish; ✓ ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashni o'rganish; ✓ o'quv materiallarini mustaqil o'rganish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. LEKSIKOLOGIYA

1. Leksikologiya va til.
2. Sodda so'zlarning o'ziga xos ma'nolari.
3. Yasama so'zlarning o'ziga xos ma'nolari.
4. Qo'shma so'zlarning o'ziga xos ma'nolari.
5. So'z ma'nosini o'rganishda paradigmaning ahamiyati.
6. So'z ma'nosini o'rganishda sintagmatik qarashning ahamiyati.
7. So'z ma'nosining turlari.
8. Umumiy va maxsus leksika.
9. So'z tuzilishida diaxron va sinxron yondashuv.
10. Frazelogizmlarning tuzilishi.
11. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining o'zaro farqi.
12. So'z va ma'no munosabatlari.
13. So'z yasashining suffiksatsiya usuli.
14. So'z yasashining prefiksatsiya usuli
15. So'z yasashining konversiya usuli
16. So'zning fonetik aspektlari.
17. So'zning analitik aspektlari.
18. Sinonim va antonimlar.
19. Omonim va uning turlari.
20. Turg'un birikmalar.
21. Erkin birikmalar.
22. So'z birikmalari.
23. So'z yasash usullari.
24. Qisqartmalarning turlari.
25. Qo'shma so'zlarning milliy tilga tarjima usullari.
26. Frazelogik birliklarning yasash usullari.
27. Lug'at maqolalarining tuzilishi.
28. Arxaizm, tarixiy so'zlar va neologizmlar.
29. So'zlarning etimologiyasi. Lug'atlarning etimologik tasnifi.
30. Tarjimada lug'atlar bilan ishlash.
31. Lug'at turlarining muammolari. Etimologik lug'atlar.
32. Britaniya ingliz tilisining leksik xususiyatlari.
33. AQSh ingliz tilisining leksik xususiyatlari.
34. Kanada ingliz tilisining leksik xususiyatlari.
35. Avstraliya ingliz tilisining leksik xususiyatlari.
36. AQSh, Kanada va Avstraliya ingliz tilisining fonetik xususiyatlari.
37. Avstraliya ingliz tilisining grammatik xususiyatlari.
38. AQSh ingliz tilisining grammatik xususiyatlari.
39. Kanada ingliz tilisining grammatik xususiyatlari
40. O'zlashma so'zlar.
41. Leksik nominatsiya metodi va lug'at tarkibining boyish usullari.
42. Lug'at tarkibining stilistik tasnifi.
43. So'zning morfologik tuzilishi.

44. Soʻz yasallish usullari.
45. Internatsional soʻzlar.

2. STILISTIKA

1. Stilistik ifoda vositalari va uslublar.
2. Leksika tarkibining stilistik tasnifi.
3. Neytral, adabiy va ogʻzaki soʻzlar.
4. Maxsus adabiy va ogʻzaki nutqqa xos soʻzlar.
5. Fonetik stilistik ifoda vositalari va uslublar.
6. Onomatopiya, alliteratsiya, qofiya, ritm.
7. Leksik stilistik vositalar.
8. Turli leksik maʼnolarning oʻzaro tasiri.
9. Metafora, metonimiya, ironiya, epitet, oksimoron, antonomaziya.
10. Narsa-predmetning maʼlum xususiyatiga koʻra maʼno kuchayishi.
11. Oʻxshatish, perifraza, evfemizm, mubolagʻa.
12. Turgʻun soʻz birikmalarning ishlatilishi.
13. Maqollar, epigramma, iqtiboslar, allyuziya, turgʻun soʻz birikmalari.
14. Sintaktik ifoda vositalari va stilistik vositalar.
15. Supra-frazal birliklar, paragraf.
16. Sintaktik qurilma kompositsiyasi.
17. Stilistik inversiya, ajratilgan konstruktsiya, parallel konstruktsiya.
18. Takror, enumeratsiya, gradatsiya, antiteza .
19. Fikr va maʼnolarning bogʻlanish usullari.
20. Asindeton, polisindeton.
21. Ellipsis, tugallanmagan gaplar
22. Ritorik soʻroq gaplar, litota.
23. Funksional stillar.
24. Badiiy uslub.
25. Sheʼriyat tili, drama tili.
26. Publitistik uslub.
27. Oratorlik, essay, jurnalistik maqolalar.
28. Axborot vositalari uslubi.
29. Qisqa yangilik birliklari, reklama, eʼlonlar, tahririyatga oid birliklar.
30. Ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar uslubi.

3.NAZARIY GRAMMATIKA

1. Soʻz birikmasi nominatsiya birligi sifatida.
2. Soʻz birikmasi (frazema) nominatsiyasining soʻz (leksema) nominatsiyasiga qiyosi.
3. Soʻz guruhlarining tuzilish xususiyatlari.
4. Frazalar transformatsiyasi.
5. Predlogli frazalar muammolari.
6. Gapning predikativ asoslari.
7. Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari.
8. Bir bosh boʻlakli soda gaplar.
9. Qoʻshma gap.
10. Gapning sintagmatik tuzilishi va soʻz birikmasi.
11. Gap boʻlaklari.

12. Gapning asosiy va ikkinchi darajali bo'laklari.
13. Oddiy gapni mono-predikativ sintaktik konstruktsiya sifatida taqdim eting.
14. Gapning mustaqil elementlari.
15. Qo'shma gapning sintaktik birliklar sifatida umumiy tadqiqi.
16. Zamonlar moslashuvi.
17. Zamonlarning paradigmatic xususiyatlari.
18. Shart maylidagi zamonlar ketma-ketligini aniqlang
19. Ko'chirma va o'zlashtirma gap.
20. O'zlashtirma gaplarda zamonlar moslashuvini aniqlash.
21. Ko'chirma gaplarda zamonlar moslashuvini aniqlash.
22. Gap bo'laklari.
23. Gapning bosh bo'laklari.
24. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.
25. Semantika va pragmatika.
26. Sintaktik aloqalar.
27. Qo'shma gaplar tuzilishi.
28. Sodda gaplar.
29. Bog'langan qo'shma gaplar.
30. Qo'shma gap tahlillari.
31. Aralash gaplar.
32. Morfologiya.
33. Gap turlari.
34. Ikki bosh bo'lakli soda gaplar.
35. O'zlashtirma gaplar.
36. Ko'chirma gaplar.
37. Zamon kategoriyasi
38. Gapning nominative aspektlari.
39. Gapning uyushuq bo'laklari.
40. Bog'lovchilar.
41. Gapning bosh bo'laklarini aniqlash.
42. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.
43. Ergashgan qo'shma gaplar.
44. So'z turkumlari tamoyillari.
45. Punktuatsiya.

4.TIL TARIXI

5.NAZARIY FONETIKA

1. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) talaffuz tamoyillari.
2. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) tovushlar reduksiyasi.
3. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) unlilar tizimi.
4. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) unlilar transkripsiyasi.
5. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) undoshlar sistemasi.
6. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) undoshlar transkripsiyasi.
7. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) monoftong, diftong va triftonglar.
8. O'rganilayotgan tilda (ingliz tili) intonatsiya.
9. Ingliz tilida so'z urg'usi.

	<p>10. Sintagma va undan foydalanish. 11. Fonostilistika va uning xususiyatlari. 12. Fonetik uslubni ifodalashni ekstra-lingvistik vositalari. 13. Intonatsiya turlari. 14. Nutqda fonemalarning o'zgarishi. 15. Intonatsiyada ohang. 16. Gap urg'usi. 17. So'z urg'usining maqsadi. 18. Intonatsiyada gap urg'usi. 19. Fonetik uslubni ifodalashni paralingvistik vositalari. 20. Urg'u darajasi va o'rni. 21. So'z urg'usi va gap urg'usining o'zaro aloqasi. 22. Fonetik sinonimiyaning ahamiyati. 23. Fonemalar. 24. Bo'inning boshida va oxirida unli va undosh tovushlarning bog'lanishi. 25. Assimilyatsiya hodisasi. 26. Intonatsiya va uning xususiyatlari. 27. Ohang va ritm. 28. Reduksiya hodisasi. 29. Unli va undoshlar tasnifi. 30. Unli va undoshlar tasnifi</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
	<p style="text-align: center;">V. Kurs ishi mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Kurs ishi fan mavzulariga taaluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.</p> <p>Kurs ishi mashg'ulotlari uchun ma'ruza va seminar, mustaqil ta'lim mavzulari tavsiya etiladi.</p>
	<p style="text-align: center;">VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>1. Leksikologiya bo'yicha natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'no o'zgarishini tushunish: So'zlarning kontekstga qarab qanday o'zgarishini, ya'ni leksik semantik o'zgarishlarni tushunish orqali talabalar tilning dinamikasini yaxshiroq anglaydilar. • Leksik xatolarni aniqlash: Matnlarda leksik xatolarni aniqlash va ularni to'g'rilash orqali tildagi aniqlik va to'g'rilikni ta'minlashni o'rganadilar. <p>2. Stilistika bo'yicha natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Uslubiy vositalarni to'g'ri qo'llash: Talabalar stilistik vositalarni (metafora, aliteratsiya va boshqalar) matnlarda maqsadga muvofiq ishlatish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. • Matnni chuqur tahlil qilish: Turli uslublardagi matnlarni tahlil qilish orqali talabalar, matnni o'zining maqsadi va auditoriyasiga qarab qanday shakllantirishni o'rganadilar. • Stilistik farqlarni aniqlash: Talabalar ilmiy, adabiy, publitsistik va boshqa uslublar

	<p>o'rtasidagi farqlarni yaxshi tushunadilar.</p> <p>3. Nazariy grammatika bo'yicha natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Grammatikani mukammal o'rganish: Talabalar grammatika qoidalarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda qo'llashda ham yaxshi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Masalan, sintaktik va morfologik tahlilni yaxshi bajara oladilar. • Grammatikaning tizimligini tushunish: Til tizimining barcha elementlari o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunib, talabalar grammatikaning asosiy tamoyillarini mustahkam o'zlashtiradilar. • Gap tuzish va tahlil qilish: Talabalar grammatik jihatdan to'g'ri, murakkab va xilma-xil gaplarni tuzish va tahlil qilishda ko'nikma hosil qiladilar. <p>4. Til tarixi bo'yicha natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tarixiy rivojlanishni tushunish: Talabalar tilning tarixiy o'zgarishlarini va rivojlanish bosqichlarini yaxshi bilib olishadi. Bu, tilni to'g'ri tushunishga va kelajakda tilshunoslikni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. • Leksik va fonetik o'zgarishlarni aniqlash: Til tarixidagi o'zgarishlarni tahlil qilib, talabalar tilning rivojlanish jarayonini yaxshi angelaydilar. • Eski va zamonaviy tilni taqqoslash: Tarixiy tahlilni amalga oshirgan holda, talabalar eski til shakllari va zamonaviy til o'rtasidagi farqlarni aniq ko'ra olishadi. <p>5. Nazariy fonetika bo'yicha natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Fonetika asoslarini puxta o'rganish: Talabalar fonemalar, stress va intonatsiya kabi fonetik tushunchalarni chuqur tushunadilar. • Fonetika va fonologiyani ajratish: Fonetika va fonologiyaning farqlarini bilish, talabalar uchun tilshunoslikning boshqa tarmoqlarini o'rganishda muhim qadam bo'ladi. • Praktik fonetik ko'nikmalar: Ovozlarni aniqlash va tahlil qilishda talabalar fonetik xatolarni aniqlash va to'g'rilashda tajriba orttiradilar.
	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>Fanini o'qitishda ta'limning zamonaviy metodlaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Ushbu fanni o'qitish jarayonida ta'limning interfaol metodlari, kommunikativ yondashuvlarga tayangan holda talabalarni ma'lumotlarni passiv holda qa'bul qilishlarini emas, balki ularning ta'lim jarayonida faollashuvi, mustaqil fikrlashi, fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga asosan o'qituvchi va talabalarning ma'lum bir nazariy va amaliy muammolarning yechimini topish bo'yicha erkin fikr almashishlarini, tanqidiy fikrlashlarini nazarda tutadi. Interfaol metodlarning quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Guruh muzokoralari (group discussion) • Jamoa loyihalari (project work) • Juftlik bo'lib topshiriqlarni bajarish (pair work) • Yakka holda prezentatsiyalar qilish (individual presentation) • Davra suhbatlari o'tkazish (round-table discussion) • Insert texnikasi (insert technique) • Pinbord texnikasi (pinboard) Keys-stadi (case-study)
	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, matnlarni tahlil qilish, mustaqil ravishda fikr yurita olish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni topshirish.</p>

IX. Asosiy adabiyotlar

1. Mo‘minov O. Ingliz tili leksikologiyasi. (Lexicology of the English language). Toshkent 2008. – 160 b.
2. Ginzburg R.S., Khidekel S.S., Knyazeva G.Y., Sankin A.A. A course in Modern English Lexicology. Moscow.
3. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа.
4. Ermetova J.I. “STYLISTICS (Lexical stylistic devices)” [Matn] / J.I. Ermetova. - Urganch: Khwarezm publication, 2025. - 228 b
5. Galperin I.R. English stylistics. – Moscow.
6. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – М.: ФЛИНТА, 2016.
7. Кухаренко В.А. Практикум по стилистике английского языка. Seminars in Stylistics : учеб. пособие / В.А. Кухаренко. — М. : Флинта : Наука, 2009. — 184 с.
8. Iriskulov M. Tokhtasinov I. Kuldashev A. Theoretical English Grammar. Tashkent 2019. 222 b.
9. Jumатов R.Ya. O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari (Nazariy grammatika fanidan) o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Xiva 2025.
10. Abduazizov A.A. English Phonetics. A theoretical course. Tashkent. 2007. 256 b.
11. Peter Roach. English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press. 2009.
12. Qo‘ldoshev A. Ingliz tili tarixi. Toshkent. 2011. 84 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

13. Давлетбаева Д.Н. Lectures on English lexicology Казань-2010.
14. Gilmanova A.A. Stylistics of the English language (practical exercises). – Kazan, University of Kazan. 2021.
15. Мороховский А.Н., Воробьева О.П., Лихошерст Н.И., Тимошенко З.В. Стилистика английского языка. – Киев.
16. Kaushanskaya and others. A Grammar of the English language. Moscow.2008.
17. Mark Hancock. English pronunciation in use. Cambridge university press. 2003.
18. Qo‘ldoshev A. Xamzayev S. Ingliz tili tarixi. Toshkent 2015.

Internet saytlari

19. <https://library.ziyonet.uz/uz>
20. <https://www.twirpx.com>
21. <https://www.researchgate.net>

Izoh: Fanni o‘qitishda har bir til xususiyati va axborot olish imkoniyatlaridan kelib chiqib, asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari ro‘yxatiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Ishchi o‘quv dasturlarini tuzishda har bir o‘qituvchi yagona darslikka tayanib qolmasdan internet metarallari – elektron ta’lim resurslari bazasidan foydalanib o‘quv materiallarini yangilab borishi ko‘zda tutiladi.

Mazkur o‘quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining (Факультет иностранных языков и регионоведения) Chet tillar va mintaqaviy tadqiqotlar fakulteti, Lingvistika yo‘nalishi, Leksikologiya, Stilistika, Til tarixi fanlaridan tuzilgan o‘quv dasturlari asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

1. http://www.ffl.msu.ru/faculty/Accreditation/bcl_003/docum_007.php?sphrase_id=126272

	<ol style="list-style-type: none"> 2. http://www.ffl.msu.ru/faculty/Accreditation/bcl_003/Annotation/%D0%90%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D1%82%D0%9E%D0%B1%D1%89%D0%B0%D1%8F%D0%B8%D1%87%D0%9B%D0%B5%D0%BA%D1%81%D0%B8%D0%BA%D0%BE%D0%B3%D1%80%D0%B1%D0%B0%D0%BA%D0%91%D0%BE%D0%B3%D0%B4%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0.pdf 3. https://philos.msu.ru/sites/default/files/%D0%A1%D1%82%D0%B8%D0%BB%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%80%D0%B5%D1%87%D0%B8%20%D0%B8%20%D1%80%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5%20-%D0%B1%D0%B0%D0%BA%D0%B0%D0%BB%D0%B0%D0%B2%D1%80%D0%B8%D0%B0%D1%82%203%2B%2B.doc 4. http://www.ffl.msu.ru/students/courses/fl-teaching/index.php 5. http://www.ffl.msu.ru/students/courses/fl-teaching/3-bakhtiozina-istoriya-angliiskogo-yazika.pdf
	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Ermetova J.I. – Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n. Jumatov R.Ya. - Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsent, PhD Karimova F.S. – Ingliz tili va adabiyoti kafedrası v.b.dotsent, PhD Ruzmetova O.A. – Ingliz tili va adabiyoti kafedrası v.b.dotsent, PhD Sapayeva B.R. – Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.</p>
	<p>Taqrizchi: Otajonova L.O. – Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, PhD</p>